



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-yil 1-son

VOLUME 5 / ISSUE 1 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.1.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Jurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas’ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

Sh. Jahonov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva, Y. Mahmudov, M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Tasdiqnom

№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 17.02.2024-yilda
bosmaxonaga topshirildi.
Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog‘i: 15,8
Adadi: 100. Buyurtma: № 52.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarmasi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

MAS’UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI

J. Blum – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (Boston, AQSh)

M. Vishovatiy – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

X. Xayitov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

I. To‘raboyev – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

S. Xolboyev – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Raxmonkulova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Ne‘matov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

УЧРЕДИТЕЛЬ: **ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» – «Yurisprudensiya» – «Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:
Ш. Жахонов, Е. Ярмолик, Э. Мустафаев,
К. Абдувалиева, Й. Махмудов,
М. Шарифова, Ш. Бекназарова

Корректор:
С. Расулова

Технический редактор:
У. Сапаев

Дизайнер:
Д. Ражапов

Адрес редакции:
100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387

Свидетельство
от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
17.02.2024.

Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 15,8. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 52.

Отпечатано в типографии
Ташкентского государственного
юридического университета.
100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Хошимхонов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев – доктор философии по юридическим наукам, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев – кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Высшем судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова – доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов – доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров – кандидат филологических наук, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

Sh. Jakhonov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev,
K. Abduvalieva, Y. Makhmudov,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

Certificate

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 17.02.2024.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 15,8.

Units: 100. Order: № 52.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgokh street, 37.

© Tashkent State University of Law

CHIEF EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

A. Khoshimxonov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Axmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

X. Xayitov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

S. Xolboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Raxmonkulova – Associate Professor of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne'matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 8 **AXMEDSHAYEVA MAVLYUDA AXATOVNA**
Yurislingvistika va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish:
ayrim nazariy-huquqiy masalalar
- 17 **SODIKOV AKMAL SHAVKAT O'G'LI**
Norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlash: huquqiy munosabat va vositalar tahlili

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 30 **ISANOV XOLMUROD RUZIYEVICH**
Sun'iy intellekt tizimlari oshiqcha xavf manbayi sifatida: fors-major holati

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 38 **JUMANAZAROVA MARJONA BOTIR QIZI**
Oxirgi zarurat holatida yetkazilishiga yo'l qo'yilgan zararining chegarasini aniqlash muammolari

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

- 51 **XUDAYBERGENOV BAXRAM KUANISHBAEVICH, HABIBULLAYEV DALERBEK BAXTIYOR O'G'LI**
Shaxsni tutqunlikka olish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish: xorij tajribasi
- 63 **BARAKAYEV LAZIZJON OTAQULOVICH**
Iqtisodiy ekspertizalarni tayinlash va o'tkazish bilan bog'liq muammolar tahlili
- 75 **MAMADALIYEV O'TKIR ABDUG'AFFAROVICH**
Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayyorlash bosqichida protsessual xatolarni bartaraf qilish imkoniyatlari

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 86 **KUDRATOV MANUCHEHR, NOROV ILXOM IBROXIMOVICH**
Markaziy Osiyoning ayrim davlatlarida korrupsiyaga qarshi choralar: qiyosiy tahlil
- 95 **MELIYEV XUDOYOR XURRAMOVICH**
Korrupsiyaning oldini olishda ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri (blokcheyn) texnologiyasi ahamiyati
- 102 **SAFAROV TEMUR UKTAMOVICH**
Davlat organlarida korrupsiyani aralash idoraviy nazorat qilish

12.00.15 – KRIMINOLOGIYA

- 114 **KASIMOV NODIRJON SODIKJONOVICH**
Qasddan odam o'ldirish jinoyatining viktimologik oldini olishda ayrim xorijiy davlatlar tajribasi tahlili

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI (SOHALAR BO'YICHA)

- 121 **GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**
Yuridik terminologiyada leksik qatlamlarning qaror topishi
- 129 **ZIYAMUXAMEDOVA SHAHNOZA TOLKUNOVNA**
O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasida qo'llangan *-lan, -lash, -lat, -lantir, -lashtir* affikslerini yuridik ta'limda o'rganish bo'yicha mulohazalar

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

- 8 **АХМЕДШАЕВА МАВЛЮДА АХАТОВНА**
Юрислингвистика и проведение лингвистической экспертизы проектов нормативно-правовых актов: некоторые теоретико-правовые вопросы
- 17 **СОДИКОВ АКМАЛ ШАВКАТ УГЛИ**
Информационное обеспечение нормотворчества: анализ правовых отношений и средств

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

- 30 **ИСАНОВ ХОЛМУРОД РУЗИЕВИЧ**
Системы искусственного интеллекта как источник повышенной опасности: форс-мажорные обстоятельства

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

- 38 **ЖУМАНАЗАРОВА МАРЖОНА БОТИР КИЗИ**
Проблемы определения пределов допустимого вреда в состоянии крайней необходимости

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

- 51 **ХУДАЙБЕРГЕНОВ БАХРАМ КУАНЫШБАЕВИЧ, ХАБИБУЛЛАЕВ ДАЛЕРБЕК БАХТИЁР УГЛИ**
Расследование преступлений, связанных с захватом заложников: зарубежный опыт
- 51 **БАРАКАЕВ ЛАЗИЗЖОН ОТАКУЛОВИЧ**
Анализ проблем назначения и проведения экономических экспертиз
- 75 **МАМАДАЛИЕВ УТКИР АБДУГАФАРОВИЧ**
Возможности устранения процессуальных ошибок на этапе подготовки уголовного дела к судебному разбирательству

12.00.12 – ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

- 86 **КУДРАТОВ МАНУЧЕХР, НОРОВ ИЛЬХОМ ИБРОХИМОВИЧ**
Антикоррупционные меры в ряде стран Центральной Азии: сравнительный анализ
- 95 **МЕЛИЕВ ХУДОЁР ХУРРАМОВИЧ**
Значение технологии распределённого реестра данных (блокчейна) в предотвращении коррупции
- 102 **САФАРОВ ТЕМУР УКТАМОВИЧ**
Смешанный ведомственный контроль коррупции в государственных органах

12.00.15 – КРИМИНОЛОГИЯ

- 114 **КАСИМОВ НОДИРЖОН СОДИКЖОНОВИЧ**
Анализ опыта некоторых зарубежных стран в виктимологической профилактике преступлений умышленного убийства

13.00.02 – ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ (ПО ОТРАСЛЯМ)

- 121 **ГУЛЯМОВА ГУЛЬНОРА ЯКУБОВНА**
Создание лексических пластов в юридической терминологии
- 129 **ЗИЯМУХАМЕДОВА ШАХНОЗА ТОЛКУНОВНА**
Размышления об изучении аффиксов *-lan*, *-lash*, *-lat*, *-lantir*, *-lashtir* в юридическом образовании на примере новой Конституции Узбекистана

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

- 8 **AKHMEDSHAEVA MAVLYUDA AKHATOVNA**
Legal linguistics and linguistic expertise of draft normative legal documents: some theoretical and legal issues
- 17 **SODIKOV AKMAL SHAVKAT UGLI**
Informational support for rulemaking: analysis of legal relations and means

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 30 **ISANOV KHOLMUROD RUZIYEVICH**
Artificial intelligence systems as a source of excessive risk: force majeure situation

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

- 38 **JUMANAZAROVA MARJONA BOTIR KIZI**
Problems of determining the limits of damage permitted in the case of extreme necessity

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

- 51 **KHUDAYBERGENOV BAKHRAM KUANISHBAEVICH, HABIBULLAYEV DALERBEK BAKHTIYOR UGLI**
Investigation of crimes related to hostage-taking: foreign experience
- 63 **BARAKAEV LAZIZJON OTAKULOVICH**
Analysis of problems related to appointment and conduct of economic expertise
- 75 **MAMADALIEV UTKIR ABDUGAFFAROVICH**
Opportunities for eliminating procedural errors during the preparatory stage of criminal case trials

12.00.12 – CORRUPTION PROBLEMS

- 86 **KUDRATOV MANUCHEHR, NOROV ILKHOM IBROKHIMOVICH**
Anti-corruption measures in several Central Asian countries: comparative analysis
- 95 **MELIEV KHUDOYOR KHURRAMOVICH**
The significance of distributed data register (blockchain) technology in preventing corruption
- 102 **SAFAROV TEMUR UKTAMOVICH**
Mixed departmental control of corruption in state bodies

12.00.15 – CRIMINOLOGY

- 114 **KASIMOV NODIRJON SODIKJONOVICH**
Analysis of the experience of some foreign countries in victimological prevention of predmitted killing

13.00.02 – THEORY AND METHODOLOGY OF EDUCATION AND UPBRINGING (BY FIELDS)

- 121 **GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**
Creation of lexical layers in legal terminology
- 129 **ZIYAMUKHAMEDOVA SHAHNOZA TOLKUNOVNA**
Considerations on the study of the affixes *-lan*, *-lash*, *-lat*, *-lantir*, *-lashtir* used in the new Constitution of Uzbekistan in legal education

Kelib tushgan / Получено / Received: 16.01.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 28.01.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 17.02.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.1./LZFK9429

UDC: 81:340.13(045)(575.1)

YURISLINGVISTIKA VA NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHALARINI LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH: AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALAR

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Davlat va huquq nazariyasi
kafedrası professori, yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0003-3719-6599
email: mavludaahmedshaeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada qonunchilik hujjatlarining sifati va samaradorligini ta'minlashda til masalasining o'рни va roli, normativ-huquqiy hujjatlar tilining davlat tili qoida va talablariga mos kelishini ta'minlashda yurislingvistika fanining ahamiyati, ushbu fan o'zida huquq va til masalalari bog'liqligini ifodalashi hamda fanning respublikamiz ilmiy maydonida rivojlanish imkoniyatlari masalalari ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, yurislingvistika va uning normativ-huquqiy hujjatlar tilining yuridik texnika talablariga mos kelishi zarurati masalasida olimlarning turlicha qarashlari tahlil etilgan. Normativ-huquqiy hujjatlar tilining davlat tili, uning qoida va talablariga mos kelishini ta'minlaydigan vositalar ichida lingvistik ekspertiza muhim o'rin egallaydi. Shunga bog'liq holda, maqolada normativ-huquqiy hujjatlarni lingvistik ekspertizadan o'tkazishning nazariy-huquqiy masalalari yoritilgan. Ayni paytda mamlakatimizda huquq ijodkorligi jarayonida lingvistik ekspertiza o'tkazishning tashkiliy-huquqiy mexanizmi va uning rivojlanishi, ushbu ekspertizani o'tkazish tartibi, ekspertizaning obyekti va subyekti, muddatlari, maqsad va vazifalari tahlil etilgan. Maqolaning xulosa qismida muallif tomonidan ishlab chiqilgan lingvistik ekspertiza o'tkazishning tashkiliy-huquqiy mexanizmi va uning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: lingvistika, yurislingvistika, lingvistik ekspertiza, normativ-huquqiy hujjat, qonun, qonun tili, davlat tili, tilga doir talablar

ЮРИСЛИНГВИСТИКА И ПРОВЕДЕНИЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРОЕКТОВ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ АКТОВ: НЕКОТОРЫЕ ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна,
доктор юридических наук,
профессор кафедры «Теория государства и права»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье рассмотрены место и роль вопроса языка в обеспечении качества и эффективности законодательных актов, значение юрислингвистики как науки,

которая обеспечивает соответствие языка нормативно-правовых актов правилам и требованиям государственного языка, а также выражает взаимосвязь вопросов права и языка. Кроме того, проанализированы возможности развития этой науки в научной сфере нашей республики. Рассмотрены различные взгляды учёных на необходимость соответствия языка нормативно-правовых актов требованиям юридической техники. Среди средств, обеспечивающих соответствие языка нормативно-правовых актов государственному языку, его правилам и требованиям, важное место занимает лингвистическая экспертиза. В связи с этим в статье освещены теоретико-правовые вопросы проведения лингвистической экспертизы нормативно-правовых актов. Также проанализированы организационно-правовой механизм проведения лингвистической экспертизы в процессе правотворчества в нашей стране, порядок проведения экспертизы, её объект и субъект, сроки, цели и задачи. В заключительной части статьи приведены предложения и рекомендации автора, направленные на дальнейшее совершенствование организационно-правового механизма проведения лингвистической экспертизы и её правовых основ.

Ключевые слова: лингвистика, юрислингвистика, лингвистическая экспертиза, нормативно-правовой акт, закон, язык закона, государственный язык, языковые требования

LEGAL LINGUISTICS AND LINGUISTIC EXPERTISE OF DRAFT NORMATIVE LEGAL DOCUMENTS: SOME THEORETICAL AND LEGAL ISSUES

Akhmedshaeva Mavlyuda Akhatovna,

Professor of the Department of Theory of State and Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law

Abstract. The article discusses the role and significance of language issues in ensuring the quality and effectiveness of legislative documents, as well as the importance of legal linguistics in ensuring that the language of normative legal documents complies with the rules and requirements of the state language. This field reflects the interconnection between law and language, and the article explores the development prospects of this discipline in our country's scientific field. At the same time, the article analyzes the varying perspectives of scholars on the necessity of ensuring that the language of normative legal documents meets the requirements of legal technique. Among the tools ensuring compliance with the state language and its rules and requirements, linguistic expertise plays an important role. In this regard, the theoretical and legal issues of conducting linguistic expertise of normative legal documents are highlighted. Currently, the article also analyzes the organizational and legal mechanism for conducting linguistic expertise in the legislative process in our country, its development, the procedure for conducting this expertise, the object and subject of the expertise, its timeframes, goals, and tasks. In the conclusion, the author presents proposals and recommendations aimed at further improving the organizational and legal mechanism for conducting linguistic expertise and its legal foundations.

Keywords: linguistics, legal linguistics, linguistic expertise, normative legal document, law, language of law, state language, language-related requirements

Kirish

O'zbekiston huquq tizimi o'z xususiyatlariga ko'ra, roman-german huquqiy oilasiga mansub bo'lib, ushbu huquqiy oilaga kiruvchi davlatlarda huquq manbalari tizimida qonun muhim o'rin tutadi. Normativ-huquqiy hujjatlarning asosiy turi bo'lgan

qonun eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, yuqori yuridik kuchga ega. Shu sababli qonunlarning sifati, ularning hayotiyliigi va samaradorligi ko'plab omillarga bog'liq. Ushbu omillar orasida qonun matnining aniqligi, ravonligi, qonun chiqaruvchining maqsadini aniq ifodalashi,

ya'ni qonunning tili alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya-sining 4-moddasida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan bo'lib, bu huquqiy jihatdan mustahkamlangan va katta ijtimoiy, siyosiy hamda ma'naviy ahamiyatga ega. Yaqin o't-mishda qonun loyihalari dastlab rus tilida tayyorlanib, keyinchalik o'zbek tiliga tarjima qilingan, bu esa huquqni qo'llash jarayo-nida qiyinchiliklar va noaniqliklarga sabab bo'lgan. Shu bois bugungi kunda mamlakati-mizda qonunlarning davlat tilida ishlab chi-qilishi nafaqat qonuniy talab, balki muhim ma'naviy-siyosiy jihatga ham ega.

O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'RQ-682-son Qonunining 32-moddasida "Tayyorlangan normativ-huquqiy hujjat loyihasi norma-tiv-huquqiy hujjat qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organga davlat tilida kiritiladi. Zarur bo'lgan hollarda uning boshqa tillardagi tar-jimasi taqdim etilishi mumkin", deb belgilan-gan.

Qonun tili haqida so'z yuritganda, huquq va tilshunoslikning o'zaro hamkorligi zaru-rati yuzaga chiqadi. Huquq bilan tilni, asli-da, nima yaqinlashtiradi? Zero, til va huquq – mavjud voqeliklar bo'lib, ular "inson borli-g'i uchun fundamental ahamiyat kasb etadi" [1, 2]. Shu bilan birga, O'zbekiston xalqaro hamjamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida bar-cha davlatlar bilan muloqotga ochiq bo'lib, xalqaro munosabatlari kundan kunga rivoj-lanmoqda. Mamlakatimizda xorijiy investor-lar faoliyat yuritayotgan bir paytda amaldagi qonunlarni boshqa tillarga tarjima qilish eh-tiyoji tabiiy ravishda yuzaga keladi. Masalan, Lex.uz – Qonunchilik hujjatlari milliy bazasi va "Huquqiy axborot" kanali orqali qonunchi-lik hujjatlari va huquqqa oid axborotlar nafa-qat o'zbek tilida, balki rus va ingliz tillarida ham muntazam ravishda taqdim etib boril-moqda.

Buyuk fransuz faylasufi Sharl Lui Montes-ke "Qonunlar ruhi haqida" nomli asarida qo-

nun tili va texnikasi bilan bog'liq masalalar haqida shunday yozgan: "Qonun tili barcha fuqarolarga bir xil tushuncha berishi, unda tushunarsiz jummalarga yo'l qo'yilmasligi, qo-nunchilik uslubi o'zining qisqa va aniqligi bi-lan ajralib turishi lozim" [3].

Shu bilan birga, mutaxassislarning fikriga ko'ra, har bir yuridik tilning o'ziga xos xusu-siyatlari mavjud. Ba'zi yuridik tillar bayoniy (narrativ) tusga ega bo'lsa, ba'zilari tushun-chaviy (konseptual) xususiyatga ega.

V.G. Tomsonning ta'kidlashicha, nemis yu-ridik tili tushunchaviy xarakterga ega bo'lib, unda muayyan huquqiy tushunchalar qisqa va aniq ifodalanadi [4]. Masalan, die Minde-rung – "sotib olish narxining pasayishi"; der Rücktritt – "shartnomadan bir tomonlama chiqish"; die Gefährdungshaftung – "yuqori xavf manbasi tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik".

Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkin-ki, o'zbek yuridik tili bugungi kunda o'z ifoda-lanish xususiyatiga ko'ra bayoniy tusdagi yu-ridik til hisoblanadi.

Darhaqiqat, til insonning atrof-muhitni id-rok etish tajribasini ifodalovchi vosita bo'lib, unda predmetlar, jarayonlar va hodisalarga oid tushunchalar shakllanadi. Til orqali fikr-lar ifodalanib, o'zaro muloqot amalga oshadi. Huquq esa davlat tomonidan belgilangan va bajarilishi majburiy bo'lgan ijtimoiy norma-larni ifodalash uchun til vositasida obyektiv-lashadi. Shu sababli huquq tili (yuridik til) alohida tushuncha sifatida qaraladi [5].

Bugungi kunda yuridik lingvistika (yuris-lingvistika) faniga bo'lgan e'tibor va ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, qonun tili-ning davlat tili talab va qoidalariga muvofiqli-gini ta'minlashda yuridik lingvistikaning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Material va metodlar

Shu munosabat bilan qonun loyihalari ti-lining davlat tili talablari va qoidalariga mos kelishini ta'minlashda lingvistik ekspertiza-ning o'rni va roli, uni o'tkazishning huquqiy asoslari va mexanizmini ilmiy tahlil etish

hamda mazkur ekspertizani tashkil etishdagi ayrim tashkiliy-huquqiy masalalarni hal etish bo'yicha ayrim tavsiyalarni shakllantirish muayyan ilmiy va nazariy ahamiyat kasb etadi.

Maqolada ilmiy bilishning umumilmiy metodlari bo'lgan analiz, sintez, mantiqiylik, tizimlilik, tarixiylik, shuningdek, xususiy huquqiy, qiyosiy-huquqiy, formal yuridik kabi metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Yuridik lingvistika (yurislingvistika) tilshunoslik bilan yurisprudensiya bazasida shakllangan fan bo'lib, normativ-huquqiy hujjatlar tili uning obyekti hisoblanadi. Shu bois ham qonun tiliga oid tadqiqotlar bir vaqtning o'zida ham yuridik, ham lingvistik bilimlar talab qiladi [6].

O.Y. Barabashning ta'kidlashicha, yurislingvistikaning o'rganish obyekti – til va huquqning kesishgan joyi hisoblansa, predmeti noaniqlik keltirib chiqarish ehtimoligaga ega bo'lgan til-huquqiy hodisalardir [7]. Fin professori Tarja Salmi Tolenenning fikricha, "Yuridik lingvistikaning maqsadi qonun tilini o'rganish, til, qonun va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarga oid yangi bilimlar yaratishga xizmat qilish, yuridik tilni rivojlantirish va uning ishlatilishini o'rganishdan iborat" [8].

Mamlakatimizda ham yurislingvistika fani shakllanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Hozirda milliy yuridik adabiyotda yurislingvistikaga oid tadqiqotlar yetarlicha rivojlanmagan. Mavjud ilmiy izlanishlar, asosan, bir necha dissertatsiya tadqiqotlari va monografiyalardan tashkil topgan, xolos.

Olimlarning ta'kidlashicha, bugungi kunda "...o'zbek yurislingvistikasining shakllanishi, taraqqiyoti, uning qonun ijodkorligi jarayonidagi o'rni va ahamiyatini o'rganish, huquqiy terminlarni unifikatsiya qilish va standartlashtirish dolzarb masalalardan biridir. Shu jumladan, huquqiy terminlarning izohli lug'atini yaratish, bunda hozirgi zamonaviy huquqiy terminlar bilan bir qatorda qadimgi musulmon huquqida qo'llangan terminlarga

ham alohida e'tibor qaratish o'zbek huquqshunosligi va tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, huquqiy demokratik davlat va jamiyat barpo etish yuridik tildan boshlanadi. Yurislingvistika yuridik tilni o'rganuvchi soha hisoblanadi. Shu bois O'zbekistonda yurislingvistika fanini rivojlantirish olimlarimiz oldida turgan dolzarb vazifadir" [2].

Mamlakatimizda bu fan rivojlanishi uchun yetarli imkoniyatlar mavjud. Xususan, yuridik oliy ta'lim muassasalarida yuridik texnika fani doirasida yurislingvistikaning asoslari o'rgatiladi, lingvistik ekspertizaga oid huquqiy asoslar mavjud. Shuningdek, ushbu ekspertizani o'tkazishning yuridik amaliyoti, moddiy va protsessual jihatlari asta-sekin shakllanib bormoqda.

Yurislingvistikaning muhim yo'nalishlaridan biri lingvistik ekspertizadir. U qonunchilik hujjatlar tili, ularning tarjimai sifati hamda yuridik texnika talablariga mosligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Lingvistik ekspertiza haqida fikr yuritishdan oldin, avvalo, normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasi tushunchasiga aniqlik kiritish mantiqan to'g'ri bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, "ekspertiza" so'zining etimologiyasiga e'tibor qaratish lozim. Ushbu atama lotincha "expertus" so'zidan olingan bo'lib, "tajribadan bilish", "tajriba asosida anglash" ma'nolarini bildiradi. Milliy va xorijiy yuridik adabiyotlarda "ekspertiza" tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan bo'lsa-da, bu borada yagona yondashuv mavjud emas.

Bugungi kunda ushbu atama keng qamrovli tushunchaga aylangan bo'lib, har qanday mutaxassis tomonidan amalga oshirilgan ilmiy yoki texnik tadqiqot, shuningdek, baholash faoliyati ham ekspertiza doirasiga kiritilmoqda [6]. Bundan tashqari, ilmiy manbalarda ekspertiza tushunchasi "muayyan sohada bilim, kompetensiya va ko'nikmalar yig'indisi", "ushbu bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislar guruhi" ma'nolarida ham qo'llanadi [9].

Milliy yuridik adabiyotlarda ekspertiza tushunchasiga oid turli ta'riflar mavjud. Masalan, "Yuridik texnika" darsligi muallifi A. Sodiqov ekspertizani "muayyan savollarga javob olish maqsadida maxsus bilim, malaka va tajribaga ega bo'lgan mutaxassisni jalb qilish orqali amalga oshiriladigan tadqiqot", deb ta'riflaydi [10]. Boshqa ta'rifga ko'ra, ekspertiza – bu ekspertlar tomonidan muayyan masalani xulosa chiqarish uchun o'rganish va tahlil qilish jarayoni bo'lib, u matn, xulosa yoki boshqa shakllarda namoyon bo'ladi [11].

Oddiy qilib aytganda, ekspertiza – qonunda belgilangan tartib va asoslar bo'yicha jalb etilgan malakali mutaxassis tomonidan muayyan masala, holat yoki jarayon yuzasidan amalga oshiriladigan intellektual tahlil natijasi bo'lib, u og'zaki yoki yozma shaklda ifodalanadi.

Shu o'rinda qonun loyihalarining lingvistik ekspertizasi tushunchasi qanday ekani haqida savol tug'ilishi tabiiy. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, "qonun loyihasining yurilingvistik ekspertizasi – bu matnning funksional-stilistik xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning hozirgi zamon adabiy tili me'yorlariga muvofiqligini baholash jarayonidir" [12].

Sud ekspertizasining, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasining bir qancha turlari bor. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'RQ-682-sonli Qonunida bu masalaga oid tegishli norma mavjud.

Mazkur qonunning "Normativ-huquqiy hujjat loyihasining ekspertizasi" deb nomlangan 25-moddasida mustahkamlangani-dek, normativ-huquqiy hujjat loyihasi huquqiy va korrupsiyaga qarshi ekspertizalardan o'tkazilishi shart.

Normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiquvchi yoki normativ-huquqiy hujjat qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organning qaroriga ko'ra, iqtisodiy, moliyaviy, ilmiy, lingvistik, ekologik, shuningdek, boshqa turdagi ekspertizalardan o'tkazilishi mumkin. Ushbu qonuniy norma qonun loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazishning bevosita huqu-

qiy asosi hisoblanadi va u boshqa qonunosti hujjatlarida o'zining batafsil ifodasini topgan.

Hozirda mamlakatimizda normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, qonunchilik hujjatlari loyihasi tilining davlat tili, talab va qoidalar hamda yuridik texnika qoidalariga mos bo'lishini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan bir necha tuzilmalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Normativ-huquqiy atamalar komissiyasi faoliyat olib boradi. Ushbu komissiyaning 2015-yil 30-apreldagi 121-III-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 4-moddasida Komissiyaning asosiy vazifalari belgilab qo'yilgan [13]:

- qonun loyihalarida adabiy til qoidalari va normalariga rioya etilishini ta'minlash;
- qonun loyihalarida normativ-huquqiy atamalarining qonun hujjatlarida qabul qilingan ma'nosiga muvofiq holda, turlicha izohlash ehtimolini istisno etadigan tarzda yagona shaklda va to'g'ri qo'llanishini ta'minlash;
- qonun loyihalarida normativ-huquqiy atamalarni qo'llash izchilligini saqlash;
- tegishli ma'noni anglatuvchi so'zlarni qonun loyihalarida bir xil shaklda qo'llash;
- boshqa tillarning qoidalari tufayli kelib chiqishi mumkin bo'lgan nomuvofiqliklarni qonun normalariga ziyon yetkazmagan holda tahrir qilish.

Ma'lumki, Konstitutsiyamizga asosan, qonun chiqaruvchi hokimiyat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi. Tegishli Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Devoni tarkibida "Lingvistik ekspertiza, tarjima va tahririyat" bo'limi [14], Senatning Nazorat tahlil Boshqarmasi tarkibida "Tarjima va tahrir" bo'limi [15] mavjud. Ushbu tuzilmalar ham qonun loyihalarini tilining talab darajasida bo'lishiga o'z vazifalari doirasida muayyan hissa qo'shadi.

Qonun loyihalarining yuridik lingvistik ekspertizasi birmuncha murakkab intellektual jarayon bo'lib, u qator talablar asosida amalga oshirilishi kerak. Bugungi kun-

da amaldagi qonunchilikka ko'ra, qonun loyihasi matnini lingvistik ekspertizadan o'tkazishning quyidagi talablari mavjud:

- jumalarning soddaligi va qisqaligi, ta'riflarning aniqligi;
- imlo, uslubiy, grammatik va orfografiya qoidalariga mosligi;
- yangi atamalar, shuningdek, soha atamalarining to'g'ri qo'llanganligi;
- so'z birikmalarining o'zaro to'g'ri bog'langanligi;
- bayonning tizimlilik va ifodali ketma-ketligi.

Shu bilan birga, ilmiy manbalarda ham normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini yuridik lingvistik ekspertizadan o'tkazish talablari haqida fikrlar bildirilgan. Jumladan, yuridik lingvistika bo'yicha mutaxassis X.S. Xayitovning ta'kidlashicha, qonun loyihalarini yuridik-lingvistik ekspertizadan o'tkazishda quyidagi talablarga ham rioya etilishi lozim: qonun loyihasidagi atamalar va iboralarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda konstitutsiyaviy qonunlari tamoyillari va talablariga mosligini ta'minlash; qonun loyihasidagi so'zlar va iboralarining o'zbek adabiy tili qoidalariga mosligini ta'minlash; qonun loyihasining lo'nda, aniq, oddiy va ravon tilda, tushunarli tarzda ifodalanishi; qonun tilining rasmiyligi; qonun tilining xalqchilligi; qonun tilining ilmiylik asoslantirilganligi; qonun tilining xolisligi va to'liqligi [2]. Ushbu talablarga to'liq rioya etilishi lingvistik ekspertizaning asosiy maqsadiga erishishga imkon beradi.

Bugungi kunda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazishning tegishli huquqiy-tashkiliy mexanizmi shakllantirilgan. Lingvistik ekspertizadan o'tkazish jarayoni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktabrdagi 662-son qarori bilan tasdiqlangan "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom normalari bilan tartibga solinadi.

Mazkur Nizomda 2023-yil 1-yanvardan boshlab loyihani ishlab chiquvchining tashabbusi bilan yoxud topshiriqqa asosan, vazirlik, idoralar bilan kelishishdan oldin loyiha matni davlat tili qoida va talablariga muvofiqligini tekshirish maqsadida lingvistik ekspertizadan o'tkazilishi belgilab qo'yildi.

Shu o'rinda savol tug'iladi: "Davlat tili qoida va talablari" deganda nimalar nazarda tutiladi? Demak, davlat tili qoida va talablari – o'zbek adabiy tilining imloviy, uslubiy, leksik-grammatik, grafik va punktuatsiya qoidalari, atamalarini to'g'ri qo'llash va matnda mantiqiy xatoliklarga yo'l qo'ymaslik talablari va b.

Ayni paytda qonun loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish subyektlari masalasi ham muhim hisoblanadi. Lingvistik ekspertiza loyihani ishlab chiquvchi davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) hokimlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi tomonidan amalga oshiriladi.

Lingvistik ekspertizani o'tkazish jarayoniga yana kimlarni jalb etish mumkin? Ishlab chiquvchining tashabbusi bilan davlat organlarining ilmiy va ta'lim tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari, ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan fuqarolar, shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi hamda uning hududiy bo'linmalari ham shartnoma asosida jalb qilinishi mumkin.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, lingvistik ekspertizadan o'tkazish ixtiyoriymi yoki barcha normativ-huquqiy hujjatlar bunday ekspertizadan o'tkazilishi shartmi, degan masala muhim ahamiyat kasb etadi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, faqat davlat tili va uni rivojlantirishga oid qonunchilik hujjatlarining

loyihalari lingvistik ekspertizadan o'tkazilishi shart, qolgan loyihalar esa ishlab chiqaruvchining tashabbusiga ko'ra amalga oshiriladi.

Lingvistik ekspertizaning obyekti normativ-huquqiy hujjat loyihasi matni hisoblanadi. Bunday ekspertizani o'tkazishga ehtiyoj loyihani ishlab chiquvchining tashabbusi bilan yoxud topshiriqqa asosan vazirlik, idoralar bilan kelishishdan oldin loyiha matni davlat tili qoida va talablariga muvofiqligini tekshirish maqsadida lingvistik ekspertizadan o'tkaziladi.

Loyiha matnini davlat tili qoida va talablariga moslash, yangi atamalarini to'g'ri qo'llash hamda grammatika, imlo, punktuatsiya qoidalariga muvofiq bo'lishi lingvistik ekspertizaning maqsadi hisoblanadi.

Bundan tashqari, loyiha matnining davlat tili qoida va talablariga, jumladan, imlo, uslubiy, grammatik va orfografiya qoidalariga mos bo'lishini ta'minlash; loyihada soha atamalarining to'g'ri qo'llanishi, yangi atamalarini ishlatganda, ularga mos ta'rif berilishini tekshirish; loyiha matni aniq va tushunarli bayon qilinganligi, so'z birikmalari to'g'ri tanlanganligi va o'zaro to'g'ri bog'langanligiga baho berish; loyiha matnidagi tushuncha va atamalarining ma'nosiga muvofiq yagona shaklda va to'g'ri qo'llanishini ta'minlash – lingvistik ekspertizaning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Shu bilan birga, normativ-huquqiy hujjat loyihasini lingvistik ekspertizadan o'tkazishda e'tibor berish kerak bo'lgan jihatlardan yana biri nafaqat loyihada, balki unga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarda ham og'zaki nutq shakllari; davlat tilida teng ma'noli so'zlar va tushunchalar mavjud bo'lgan taqdirda, chet tillari atamalari; eskirgan hamda ko'p ma'noni anglatadigan so'zlar va iboralar, majoziy taqqoslashlar, sifatlashlar, kinoyalar; abbreviatura va qisqartmalar qo'llash mumkin emasligidir.

Shu bilan birga, bu masalada ayrim istisnalar ham mavjud. Jumladan, umumiy qabul qilingan abbreviatura va qisqartmalar, shu-

ningdek, qonunosti hujjatlari ilovalaridagi tashkilotlarning qisqartirilgan nomlari loyihada keltirilishi mumkin.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda mamlakatimizda yurislingvistika fani va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazishning ilmiy-nazariy, tashkiliy huquqiy asoslari ma'lum darajada shakllangan. Loyihalarni lingvistik ekspertizadan o'tkazish borasida muayyan amaliyot ham shakllanish jarayonida davom etmoqda.

Tadqiqot natijalari tahlili

Bu sohadagi ayrim amaliyotchilarning fikrini o'rganish asosida mamlakatimizda yurislingvistika fanini rivojlantirish va normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini lingvistik ekspertizadan o'tkazishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish zarurati va imkoniyati bor. Xususan:

1. Mamlakatimizda yurislingvistika fani bo'yicha akademik, yuridik fanlar doktori, professor A.X. Saidov va N. Ko'chimovlarning ushbu masalaga bag'ishlangan monografiyalari, shuningdek, professor, yuridik fanlar doktori X.S. Hayitovning dissertatsiyasi va monografiyasi hamda boshqa ilmiy ishlar mavjud. Ushbu fan bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va o'quv adabiyotlarini yaratish ishlarini yanada kuchaytirish zarur. Bunga doktorlik va magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlash jarayonini faollashtirish orqali erishish mumkin.

2. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish bo'yicha mavjud huquqiy asoslarni yanada rivojlantirish lozim. Xususan, amaldagi Nizomning 4-bobi 11-bandida lingvistik ekspertiza "ishlab chiqaruvchining tashabbusi bilan yoxud topshiriqqa asosan vazirlik va idoralar bilan kelishishdan oldin o'tkaziladi" deb belgilangan. Ushbu banddagi "ishlab chiqaruvchining tashabbusi bilan" iborasi amaliyotda ekspertizani o'tkazish majburiy emasligi haqidagi xulosani keltirib chiqarishi mumkin.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida huquqiy ekspertizaga kel-

gan loyihalarga lingvistik ekspertiza xulosasini ilova qilish amaliyoti yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu sohada muayyan faollik kuzatilmoqda. Shu bois Nizomning 11-bandidagi "ishlab chiqaruvchining tashabbusi bilan" degan iborani "barcha muhim normativ-huquqiy hujjatlar" degan ibora bilan almashtirish maqsadga muvofiq.

3. Qayd etilgan Nizomning 11-bandi 2-xat boshida "Davlat tili va uni rivojlantirishga oid qonunchilik hujjatlarining loyihalari lingvistik ekspertizadan o'tkazilishi shart", deyilgan. Shu o'rinda nima uchun yoki aynan shu masalaga oid hujjatlarga lingvistik ekspertizadan o'tkazilishi shart, degan savol tug'iladi. Davlat va jamiyat hayoti, inson huquqlariga oid juda muhim qonunchilik hujjatlari-chi? Shu bois bu masalaga ham Nizomda aniqlik kiritilishi zarur. Bundan tashqari, lingvistik ekspertiza ishlab chiqilayotgan loyihalarining qancha qismini qamrab olyapti, qanday hujjatlarni o'z ichiga olgan, degan masalada ma'lum bir monitoring va statistika yuritilishi maqsadga muvofiq.

4. Lingvistik ekspertiza o'tkazish vakolatiga ega asosiy subyektlar davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) hokimlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchilaridir.

Ushbu maslahatchilarning tilshunoslik bo'yicha ma'lumotga ega yoki ega emasligi;

ekspertlik layoqati va kasbiy malakasi; yuridik bilimlari, jumladan, yuridik texnika asoslarini qay darajada bilishi; ekspertizani mamlakat miqyosida yagona uslubiyot asosida amalga oshira olish qobiliyati; tegishli sertifikatga ega yoki ega emasligi masalalariga e'tibor qaratish zarur.

Bu muammolarni hal qilish uchun maslahatchilarni tegishli uslubiy ko'rsatmalar, o'zbek yuridik tilining izohli lug'ati va boshqa o'quv materiallari bilan ta'minlash; Adliya vazirligi huzuridagi YuMOMda malaka oshirish kurslarida o'qitish tizimini yo'lga qo'yish lozim.

5. Lingvistik ekspertiza faqatgina imlo va stilistik xatolarni tuzatish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bu jarayonda matnning aniq va tushunarli bo'lishi, huquqiy texnika talablariga muvofiqligi ham e'tiborga olinishi lozim.

Shuningdek, lingvistik ekspertlar uchun Yuridik atamalarning izohli lug'ati kabi manbalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Xulosalar

Bugungi kunda mamlakatimizda normativ-huquqiy hujjatlar tilini takomillashtirish, uning qonunchilik hujjatlari sifatini oshirish va huquqni qo'llash jarayonining aniqligini ta'minlash zarurati mavjud. Yuridik ekspertizaning maqsadi va ahamiyati aynan shu masalaga qaratilganligi bilan muhimdir. Shu bois lingvistik ekspertizani o'tkazishning huquqiy asoslari va uning tashkiliy-huquqiy mexanizmini takomillashtirish zarur. Yuqoridagi takliflar aynan shu maqsadga yo'naltirilgan.

REFERENCES

1. Montesk'yo Sh. Izbrannyye proizvedeniya [Selected Works]. Moscow, 1955, p. 651.
2. Hayitov X.S. Qonun ijodkorligida yuridik-lingvistik ekspertiza o'tkazishning tashkiliy-huquqiy masalalari [Organizational and legal issues of conducting legal and linguistic expertise in lawmaking]. Tashkent, 2012.

3. Tomson G.V. Yurislingvistika. Teoriya i praktika [Legal linguistics. Theory and practice]. Available at: <https://scholar.google.ru/citations?user=SzG8VM0AAAAJ&hl=ru>
4. Gubayeva N.D. Slovesnost' v yurisprudentsii [Literature in jurisprudence]. Kazan. Available at: <http://www.dissercat.com/content/slovesnost-v-yurisprudentsii>
5. Golev N.D. Vzaimodeystviye yestestvennogo i yuridicheskogo yazyka kak bazovaya problema yurislingvistik [Interaction of natural and legal language as a basic problem of legal linguistics]. Available at: <http://lingo.asu.ru/golev/articles/zo9.html>
6. Saidov A.X., Ko'chimov Sh.N. Qonunchilik texnikasi asoslari [Fundamentals of legislative technique]. Tashkent, Adolat Publ., 2001, p. 29.
7. Barabash O.V. Yurislingvistika: istoki, problemy, perspektivy [Legal linguistics: origins, problems, prospects]. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/yurislingvistika-istoki-problemy-perspektivy>
8. Tarja S.T. Legal Linguistic Knowledge and Creating and Interpreting Law in Multilingual Environments. Brooklyn J. Int'l L, 2004, p. 1169.
9. Koldin V.YA. Ekspertiza kak instrument prava. Problemy yuridicheskoy nauki [Expertise as a legal instrument. Problems of legal science]. Novgorod.
10. What does the word expertise mean? Available at: <https://otvet.mail.ru/question/228119042#:text=%D0%94%D0%B5%D1%8F%D1%82%D0%B5%D0%BB%>
11. Sodiqov A. Yuridik texnika [Legal technique]. Tashkent, 2024, TSUL Publ., p. 169.
12. Sovremennyy slovar' inostrannykh slov [Modern dictionary of foreign words]. Available at: <https://gramota.ru/meta/ekspertiza>
13. Abdullaev B. Yurislingvistik ekspertiza – qonunlar mukammalligining omili [Juristic linguistic expertise is a factor in the perfection of laws]. *Rights and Duties*, Tashkent, 2008, vol. 11, p. 40.
14. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Devoni "Lingvistik ekspertiza, tarjima va tahririyat" bo'limi [Department of "Linguistic Expertise, Translation and Editorial" of the Office of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <https://parliament.gov.uz/department>
15. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatning Nazorat tahlil Boshqarmasi tarkibida "Tarjima va tahrir" bo'limi [The "Translation and Editing" Department is part of the Supervisory and Analytical Department of the Senate of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <https://senat.uz/oz/senate-office/departments>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 1-SON

VOLUME 5 / ISSUE 1 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.1.